

TA’LIMDA FANLARARO BOG‘LANISHLARNING DIDAKTIK FUNKSIYALARI.

*Nurmatov Mirzoxid Ismoiljonovich
Andijon davlat universiteti kata o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada fanlararo aloqalarning, didaktik funksiyalari ta’riflari va metrologik bilimlarni o‘qitishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatilishi lozim bo‘lgan fanlarkeltirilgan.

Kalit so‘zlar: metodologiya, ta’lim funksiyasi, rivojlantiruvchi funksiya, tarbiyaviy funksiya, konstruktiv funksiya, integratsiy.

Fanlararo aloqalar real voqelikdagi obyektlar, hodisalar va jarayonlar orasidagi munosabatlarni umumlashtiruvchi, o‘quv-tarbiyaviy jarayon mazmunida, shaklida, metodida aks etadi va ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni cheklangan dars jarayonida amalga oshirish hamda tahlil qilish mexanizmidir. Shunga ko‘ra fanlararo aloqalarni amalga oshirishning muayyan funksiyalari mavjudligini e’tirof etish lozim. O‘quv jarayonida fanlararo aloqalarni amalga oshirishning funksiyalari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Ta’limda fanlararo bog‘lanishlarning didaktik funksiyalari

Metodologiya (metod va ...logiya so‘zlaridan) — tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta’limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi, deb ham ta’riflanadi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondashish yo‘lini o‘rgatadi. Voqelikning muayyan qismini, biror jihatini, rivojlanishining ayrim holatini o‘rgatuvchi Metodologiyaga metafizikani, voqelikning chiziqli rivojlanish, o‘zgarish jarayonini va uni tashkil etuvchi elementlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aks ettiruvchi metodologiyaga dialektikani, voqelikda ro‘y beruvchi keskin, halokatli o‘zgarishlar, nochiziqli rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodologiyaga sinergetikapsh misol sifatida ko‘rsatish mumkin


Ta’lim funksiyasi -ta’lim jarayonining negizini o‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’limiy faoliyatlari tashkil etadi. “Funksiya” tushunchasi - “ta’lim vazifalari” tushunchasiga yaqindir. Ta’lim funksiyasi ta’lim jarayoni mohiyatini ifoda etsa, vazifasi esa ta’limning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Rivojlantiruvchi funksiya-talabalar shaxsining aqliy, hissiy, hissiy-irodaviy, motivatsion va kommunikativ sohalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan faol o‘qitish usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy funksiya- o‘quvchilarni turli xil faoliyat turlarini tashkil etish va joriy etishdan iborat bo‘lib, ular davomida o‘quvchilar shaxsining intellektual, hissiy va irodaviy fazilatlarini, kasbiy va aksiologik qarashlari va e’tiqodlari, shuningdek, o‘quv va kognitiv faoliyat motivlari shakllanadi.

Konstruktiv funksiyasi-har bir alohida dars uchun pedagogika bo'yicha o'quv materialini tartiblash va tizimlashtirishdan iborat. O'qitish funksiyalari g'oyasi ham vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Ularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Masalan, ta'limiy funksiya bilimlarni birlashtirish, sinfda o'quvchilarning evristik faoliyatini tashkil etish, modellashtirish, aks ettirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun metodikaning obyekt sifatida o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati bilan ifodalanadigan o'quv jarayoni ko'rib chiqilishi mumkin, bu jarayon davomida ko'plab o'zaro bog'liq funksiyalar amalga oshiriladi. Pedagogika o'qitish metodikasi predmetini bu fanni o'qitishning maqsadi va predmet mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, shakllari va texnologiyalari tashkil etadi. Eng muhim element - bu pedagogika o'qitish maqsadi bo'lib, u boshqa barcha elementlarni (o'qitishning mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, shakllari va texnologiyalari) belgilaydi.

Fanlararo aloqalarni amalga oshirish – turli o'quv fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarni birlashtirishni ta'minlovchi o'qituvchining maqsadli yo'naltirilgan faoliyati. V.N.Fyodorova, M.M.Levina, A.V.Usova, N.A.Sorokin va boshqa metodist- olimlarlar fanlararo aloqalarni o'quvchilarning bilimini oshiruvchi, aqliy va bilish qobiliyatlarini, faoliyati va qiziqishlarini, malaka va ko'nikmalarini rivojlantiruvchi didaktik shart deb hisoblashadi.



2-rasm. Metrologik bilimlarni o'qitishda to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatilishi lozim bo'lgan umumtexnika fanlari.

Fanlararo aloqalar tamoyili o'quvchilar uchun boshqa fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni qo'llash va tahlil qilishga yo'naltirilgan savollar va vazifalarni shakllantirishni maqsad qilib oladi. Fanlararo aloqalardan tizimli foydalanish boshqa fanlarni o'rganishda bir o'quv predmetiga oid didaktik materiallar va ko'rgazmali qurollardan (darsliklar, jadvallar, asbob-uskunalar, xaritalar, kinofilmlar, slaydlar va boshqalar) keng foydalanish imkoniyatini beradi. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda umumlashgan shaklda – seminarlar, umumlashtiruvchi darslar, ekskursiyalar, fanlararo mazmundagi konferensiyalar zarur. Bunday mashg'ulotlar o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtiradi, shuningdek o'qituvchilardan turdosh fanlar o'quv dasturlarini o'rganishni, o'zaro integratsion darslarga qatnashishni talab qiladi.

Adabiyotlar

1 . Alijanov Dilmurod A’zamjon o‘g‘li “O‘quvchilarning fizik bilimlarini fanlararo aloqadorlik asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Namangan 2023 yil

2. Митчем, К. Что такое философия техники? / К. Митчем; пер. с англ. под ред. В.Г. Горохова. – М.: Аспект Пресс, 1995. – 149 с.